

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

O‘ZBEKISTONDA “YASHIL ENERGETIKA”NI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
o‘qituvchisi*

ubaydullayevavasila3@gmail.com

*Mamadaliyeva Gulsanam Ulug‘bek qizi, Alimqulova Ruxshona Rustam
qizi*

Iqtisodiyot yo‘nalishi 133-23 guruh talabalari

Annotatsiya: Ta’kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotni, umuman, “yashil” energetikani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha qat’iy qadamlar qo‘yildi.

Kalit so‘zlar: Yashil energetika, yashil iqtisodiyot, energetika manbalari, tiklanadigan energiya, yashil taraqqiyot, quyoshli xonadon.

Ma’lumki, O‘zbekiston “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini qabul qildi. Unda yaqin o‘n yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko‘zda tutilgan. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston uglevodorod energiyasi-neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo‘qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag‘ni talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali bo‘lgan “yashil energetika”ga o‘tish ming chandon afzal. Zero, butun dunyo shu yo‘lni tanlayapti. E’tiborlisi, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo‘lib mazkur harakatga qo‘shildi. Mohiyatan olib qaraganda, ikki yil avval qabul qilingan “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi yurtimizning “yashil taraqqiyot” sari yuz burganini anglatadi.

Joriy yilning 27 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “yashil energetika” sohasidagi yirik qo‘shma loyihalarni ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi. Unda davlatimiz rahbari mamlakatda “yashil energetika”ni rivojlantirishning 2030 yilgacha strategik dasturi haqida muhim mulohazalarni bildirdi.

Qayd etilganidek, biz sohani isloh etishni, birinchi galda, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yetakchi ekspertlari bilan maslahat qilishdan boshladik. Ayni chog‘da bir qator qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish va yangi qarorlarni qabul qilish orqali energetika tarmog‘ida bozor tamoyillariga asoslangan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Sohada ma’muriy-buyruqbozlik mexanizmlari va monopoliyadan voz kechib, zamonaviy boshqariladigan ochiq va

shaffof tizimga o‘tildi. Xususiy sektor va xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Sohoni rag‘batlantirish maqsadida quyosh panellari o‘rnatishga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini kafolatli sotib olish bo‘yicha “Quyoshli xonadon” tizimini yo‘lga qo‘ydik. Shu yilning o‘zida yurtimizda 50 ming xonadon va tadbirkorlar tomonidan quyosh panellari o‘rnatildi. Mamlakatimizda 7 milliondan ortiq uy-joylar borligini hisobga olsak, bu investorlar uchun katta bozor yaratishini alohida qayd etmoqchiman. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, davlat rahbari yuqaridagi loyihalarni bajargan va unda ishtirok etgan hamkor davlatlar va kompaniyalarga xalqimiz nomidan minnatdorlik bildirdi. Shu bilan birga, xorijiy hamkorlarni “yashil energetika” sohasidagi butlovchi va ehtiyot qismlar ishlab chiqarishda mahalliy korxonalar bilan yaqin kooperatsiya aloqalarini yanada kuchaytirishga chaqirdi.

Prezidentimiz o‘z ma’ruzasi yakunida mazkur chora-tadbirlarni izchil davom ettirib, raqobatli bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich olib borish, xususan, bu yo‘lda yaqinda energetika bozori regulatorini tashkil etish bo‘yicha muhim qarorni qabul qilinganligini, hozir yurtimizda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari ustida jadal ish olib borilayotganligini, shu bilan birga, yangi generatsiya quvvatlarini yetkazish uchun infratuzilmani yanada yaxshilashga alohida urg‘u berilayotganligini alohida ta’kidlab o‘tdi. Umuman olganda, mamlakatda aholi soni va daromadlari ko‘paymoqda. Bunday sharoitda, turgan gapki, energetika resurslariga bo‘lgan talab ham ortadi. “Yashil iqtisodiyot”ning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish hisoblanadi. Bu jihatdan O‘zbekistonning salohiyati ancha yuqori. Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitobiga qaraganda, respublikada muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg‘i ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra ko‘pni tashkil etadi. Boz ustiga, “yashil energetika” sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O‘zbekistonda yaqin o‘n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko‘paytirish imkonini beradi. Bu iqtisodiyotimiz uchun mislsiz foyda keltiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatning “yashil energetika”ga jadallik bilan o‘tishi, avvalo, mintaqada ekologik muvozanatni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining energiyaga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi «2019-2030 yillar davrida o‘zbekiston respublikasining ”Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 4477-son qarori.
2. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. ‘Ma’rifat’, 2024.
3. Asqarova M.T., J.J.Jamolov, X.S.Xadjayev. “Yashil iqtisodiyot”Darslik.
4. Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna-2025” Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xizmatlar ko‘rsatishning integratsion jarayonlari” “Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot” Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal. 2025-yil iyun 6-son 1546-1548bet

5.Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna, Zulfakarova Liliya -2025.”The socio-economic essence and importance of public-private partnership in the education system” *Journal of International Science Networks* , 1(5), 114-117

6.Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna-2025 “Development characteristics and trends in the provision of preschool education services based on public-private partnership”. mental enlightenment scientific – methodological journal <https://doi.org/10.37547/mesmj-V6-I4-39>. 14.06.2025/ 379-384

7.Ubaydullaeva Vasila Sadullaevna-2024- “ Ta’lim xizmatlari ko’rsatish sifatini oshirish va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish” *International Scientific and Practical Conference*, 1(2), 242-246.

8.Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna-2024 “Ta’lim tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari // “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 2024.e-ISSN-2992-877X. OAV №0237 503-510 bet. 11-son (08.00.05. №11).

9.Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna Davlat-Xususiy Sherikchiligini Tashkil Qilish Samaradorligini Oshirish.// “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. 2024.-ISSN-2181-4430. OAV №0237 503-510 bet. 9-son (08.00.05. №9).

10.Ubaydullaeva Vasila Sadullaevna ”Ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirish va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish”// “Korrupsiyasiz jamiyat - muammo va yechimlar” mavzusida 2025 yil 12 fevralda respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 361-365

11.Sadullaevna U. V. The role of HEMIS in the management of the educational system of higher education institutions //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – T. 20. – S. 19-22bet.

12.Ubaydullaeva V. Uzluksiz ta’lim tizimida ta’limning texnologiyalarini qo‘llash muammolari //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 132-143.

13.Убайдуллаева В. Фанларни ўқитишда инновацион ёндашув //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – S. 134-137.

14.Ubaydullaeva V. Digitization-an important “Driver” of the development of New Uzbekistan //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – S. 173-176.

15.Ubaydullaeva, V. (2024).Raqamlashtirish-yangi ao‘zbekiston rivojlanishining muhim “DRIVERI”. *Science technology&Digital Finance*, 2(3), 18-22.

16. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 02.

17. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 21-24.

18. Kamolov , D. (2025). VIRTUAL TURIZM (VR) XIZMATLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Scientific Practical Conference, 1(1), 372-374. <https://d-pressa.com/index.php/spc/article/view/264>